



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 2/2 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 2/2

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 2/2



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-2/2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Мухамедов Хайдарали Мелиевич ЎРТА АСРЛАР ҲУҚУҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲУҚУҚҚА ТАЪСИРИ: ТАРИХИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	5
2. Мирзаев Файзулла Ибодуллаевич ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ИСЛОҲОТЛАР ШАРОИТИДА ЖИНОИЙ ДАРОМАДЛАРНИ ЛЕГАЛЛАШТИРИШГА ҚАРШИ КУРАШИШНИ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТДАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	14
3. Авлиякулова Матлуба Авазовна КОРПОРАТИВ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	22
4. Baratov Mirodiljon Xomudjonovich, Akramxodjayev Bori Toxtaxodjayevich TURISTIK MAHSULOTNING XUSUSIYATLARI VA BU SOHADAGI RAQOBATBARDOSHLIK.....	29
5. Ergasheva Shohista O'ktam qizi KRIPTOVALYUTALARNING TRANSFER JARARAYONIDA QO'LLANILADIGAN HUQUQ MASALASI.....	39
6. Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖАМОАТ ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	46
7. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич ПРОКУРАТУРА ОРҒАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧЕГАРАЛАРИ.....	54
8. Matkarimov Qudrat Qalandarovich ISHKI ISHLAR ORGANLARIDA QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.....	62
9. A'zamov Akbarxon Izzatbek o'g'li QASDDAN TO'LOVGA QOBILİYATSIZLIKKA OLIB KELISHNING JINOIY-HUQUQIY JINATLARI, O'XSHASH JINOYATLARDAN FARQLI TOMONLARI HAMDA XORIJIY TAJRIBA.....	70
10. Хамидов Нурмухаммад Ориф угли ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ КАК ФОРМА ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТИ: ПОНЯТИЕ, СОЦИАЛЬНАЯ ОПАСНОСТЬ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	77
11. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich SUN'IY INTELLEKTDAN JINOIY MAQSADDA FOYDALANISHNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI, IJTIMOIY-HUQUQIY MONIYATI.....	85
12. Насруллаев Фирдавс Сухробович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭКСТРАДИЦИЯ ЖАРАЁНИДА ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎРНИ ВА ИДОРАЛАРАРО ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	92



Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish sho'bası professori vazifasini bajaruvchi
E-mail: marufjonkurbanov77@gmail.com

SUN'IY INTELLEKTDAN JINOIY MAQSADDA FOYDALANISHNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI, IJTIMOYIY-HUQUQIY MOHIYATI

For citation: Kurbanov Marufjon Mamadaminovich. CRIMINAL-LEGAL CHARACTERIZATION AND SOCIO-LEGAL NATURE OF THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR CRIMINAL PURPOSES. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 2/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839352>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishning jinoyat-huquqiy tavsifi va uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati kompleks ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt jinoyat tarkibining mustaqil elementi sifatida emas, balki jinoyat sodir etish vositasi yoki usuli sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Muallif sun'iy intellekt orqali sodir etiladigan qilmishlarda jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari, ayniqsa "qilish usuli", ayb shakli hamda sabab-oqibat bog'lanishini aniqlash masalalari murakkablashishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqolada generativ sun'iy intellekt, deepfake texnologiyalari, algoritmik qaror qabul qilish tizimlari va avtomatlashtirilgan axborot vositalari jinoyatchilikning yangi shakllarini yuzaga keltirayotgani ta'kidlanadi. Ushbu jarayon jinoyat huquqida texnologik neytrallik prinsipini saqlagan holda, mavjud jinoyat tarkiblarini zamonaviy raqamli muhit sharoitiga mos ravishda talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Tadqiqotda sun'iy intellekt bilan bog'liq javobgarlikni belgilashda "risk-based approach", "effective control" hamda algoritmik shaffoflik konsepsiyalarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, transmilliy xususiyatga ega bo'lgan sun'iy intellekt orqali sodir etiladigan jinoyatlar yurisdiksiya, ekstraditsiya va xalqaro hamkorlik masalalarini murakkablashtirishi asoslangan. Muallif jinoiy javobgarlikni takomillashtirish bo'yicha normativ takliflar ishlab chiqqan bo'lib, yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlari uchun majburiy risk baholash, algoritmik audit, inson nazorati mexanizmini mustahkamlash hamda maxsus professional javobgarlik standartlarini joriy etish zarurligini ilgari suradi. Xulosa sifatida, sun'iy intellekt fenomeni jinoyat huquqining konseptual asoslarini inkor etmasdan, ularni zamonaviylashtirishni talab etishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jinoyat tarkibi, jinoyat sodir etish usuli, ayb shakli, algoritmik javobgarlik, riskka asoslangan yondashuv, transmilliy jinoyatlar, algoritmik shaffoflik, kiberjinoyatchilik.

Курбанов Маъруфжон Мамадаминович,
Исполняющий обязанности профессора сектора «Уголовное право,

криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: marufjonkurbanov77@gmail.com

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕСТУПНЫХ ЦЕЛЯХ

АННОТАЦИЯ

В статье комплексно анализируются уголовно-правовая характеристика и социально-правовая сущность использования искусственного интеллекта в преступных целях. Обосновывается, что искусственный интеллект не выступает самостоятельным элементом состава преступления, а рассматривается как средство или способ его совершения. Особое внимание уделяется трансформации объективных и субъективных признаков состава преступления, усложнению способа совершения деяния, установлению формы вины и причинно-следственной связи. Исследуются проблемы, связанные с применением генеративных технологий, deepfake, алгоритмических систем принятия решений и автоматизированных информационных инструментов, формирующих новые формы преступности. Подчеркивается необходимость сохранения принципа технологической нейтральности уголовного права при одновременной адаптации существующих норм к цифровой среде. Анализируются концепции «risk-based approach», «effective control» и алгоритмической прозрачности при определении ответственности. Отдельно рассматривается транснациональный характер преступлений, совершаемых с использованием ИИ, а также вопросы юрисдикции и международного сотрудничества. Формулируются предложения по совершенствованию уголовной ответственности, включая обязательную оценку рисков, алгоритмический аудит, усиление механизма человеческого контроля и введение специальных стандартов профессиональной ответственности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, состав преступления, способ совершения преступления, форма вины, алгоритмическая ответственность, риск-ориентированный подход, транснациональная преступность, алгоритмическая прозрачность, киберпреступность.

Kurbanov Marufjon Mamadaminovich,
Acting Professor of Department Criminal Law,
Criminology and Fight Against Corruption
at Tashkent State University of Law
E-mail: marufjonkurbanov77@gmail.com

CRIMINAL-LEGAL CHARACTERIZATION AND SOCIO-LEGAL NATURE OF THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR CRIMINAL PURPOSES

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of the criminal-legal characterization and socio-legal nature of the use of artificial intelligence (AI) for criminal purposes. The study argues that artificial intelligence does not constitute an independent element of a crime but functions as a means or method of committing criminal acts. Particular attention is paid to the transformation of the objective and subjective elements of crime, including the complication of the modus operandi, the determination of guilt (intent or negligence), and the establishment of causal links. The article examines challenges associated with generative AI technologies, deepfake systems, algorithmic decision-making mechanisms, and automated digital tools that contribute to the emergence of new forms of criminal activity. It emphasizes the need to preserve the principle of technological neutrality in criminal law while adapting existing legal norms to the realities of the digital environment. The research further analyzes the relevance of the “risk-based approach,” the “effective control” criterion, and algorithmic

transparency in determining criminal liability. Special consideration is given to the transnational nature of AI-related crimes and the resulting jurisdictional and international cooperation issues. The author proposes normative reforms, including mandatory risk assessments for high-risk AI systems, algorithmic auditing mechanisms, strengthened human oversight requirements, and the introduction of special professional liability standards. The study concludes that the phenomenon of artificial intelligence does not undermine the conceptual foundations of criminal law but necessitates their modernization in light of technological developments.

Keywords: artificial intelligence, elements of crime, modus operandi, form of guilt, algorithmic liability, risk-based approach, transnational crime, algorithmic transparency, cybercrime.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi global miqyosda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, sun'iy intellektdan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar masalasida davlatlar o'z jinoyat qonunchiligini moslashtirish, yangi huquqiy institutlarni joriy etish yoki mavjud normalarni keng talqin qilish yo'lidan bormoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda – SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot, boshqaruv, tibbiyot va ta'lim tizimlarini, balki huquqiy munosabatlar tabiatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, ushbu texnologiyalarning jinoiy maqsadlarda qo'llanishi zamonaviy jinoyat huquqi oldiga yangi konseptual va normativ muammolarni qo'ymoqda. Shu bois sun'iy intellektdan jinoiy maqsadda foydalanishning jinoyat-huquqiy tavsifini aniqlash va uning ijtimoiy-huquqiy mohiyatini ochib berish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Avvalo, jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan sun'iy intellektdan foydalanish mustaqil jinoyat tarkibini emas, balki jinoyat sodir etish vositasi yoki usuli sifatida namoyon bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (keyingi o'rinlarda – JK) “sun'iy intellekt” tushunchasi bevosita mustahkamlanmagan bo'lsa-da, JKda nazarda tutilgan qator jinoyat tarkiblari (masalan, kompyuter axborotiga qonunga xilof ravishda kirish, axborot resurslarini buzish, firibgarlik, tovlamachilik, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish va tarqatish va boshqalar) SI texnologiyalaridan foydalanish orqali sodir etilishi mumkin.

“Sun'iy intellektdan foydalanilgan holda sodir etiladigan jinoyatlar” atamasi nisbatan yaqinda ilmiy va huquqiy muomalaga kirib kelgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida keng qo'llaniladigan tushunchaga aylandi. Ushbu ibora sun'iy intellekt firibgarlik, aldov hamda turli ko'rinishdagi manipulyatsiyalarni amalga oshirish maqsadida qalbaki mahsulotlar yoki ma'lumotlarni yaratishda vosita sifatida qo'llaniladigan jinoyatlarni anglatadi [1].

Shu jihatdan, sun'iy intellektdan jinoiy maqsadda foydalanishning jinoyat-huquqiy tavsifi, eng avvalo, qilinish usulining murakkablashuvi va ijtimoiy xavflilik darajasining ortishi bilan tavsiflanadi. Jinoyat huquqi nazariyasida “qilinish usuli” jinoyatning obyektiv tomonini tavsiflovchi muhim belgilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Agar jinoyat SI yordamida sodir etilgan bo'lsa, bu holat jinoyatning sodir etilish mexanizmini murakkablashtiradi, dalillarni aniqlashni qiyinlashtiradi va sabab-oqibat bog'liqligini belgilash jarayoniga to'sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, SI texnologiyalari jinoyatchilar tomonidan axborot xavfsizligi tizimlarini chetlab o'tish yoki qaror qabul qilish jarayonlariga noqonuniy ta'sir ko'rsatish maqsadida ham qo'llanilishi mumkin [2]. Sun'iy intellektning jadal rivojlanib borayotgan imkoniyatlari ko'lami va oqibatlari jihatidan ilgari kuzatilmagan darajadagi jinoiy qilmishlarni sodir etish imkonini yaratmoqda hamda samarali himoya choralarini ishlab chiqish va qo'llash jarayonini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda.

Masalan, generativ sun'iy intellekt texnologiyalari orqali “deepfake” video yoki audio materiallar tayyorlanib, ular yordamida firibgarlik yoki sha'ni va qadr-qimmatni tahqirlashga qaratilgan harakatlar sodir etilishi mumkin. Bunday holatda jinoyatning bevosita obyekti shaxsning mulkiy yoki nomulkiy huquqlari bo'lsa-da, ijtimoiy xavflilik darajasi an'anaviy usullar bilan sodir

etilgan jinoyatlarga nisbatan yuqori bo'lishi ehtimoli mavjud. Chunki SI orqali yaratilgan soxta axborot yuqori darajada ishonchli ko'rinish oladi va keng auditoriyaga tez tarqaladi.

Sun'iy intellekt (SI) tobora takomillashib va ta'sir doirasini kengaytirib borar ekan, undan jinoiy maqsadlarda foydalanish ehtimoli ham mutanosib ravishda ortib bormoqda. Bu esa jinoyatchilikning yangi shakllari yuzaga kelishiga hamda jabrlanuvchilar sonining ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur hodisalarga qarshi samarali kurashish mexanizmlari mavjudmi? Huquqiy tartibga solishni shoshilinch ravishda o'zgartirish esa qisqa muddat ichida uning eskirib qolishiga olib kelishi ehtimolini ham yuzaga keltiradi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarining SI yordamida sodir etilayotgan yangi turdagi jinoyatlarga tatbiq etilishi masalasi murakkab va ko'p qirrali muammo hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar amaldagi huquqiy tizim universal xususiyatga ega bo'lib, uni yangi jinoyat turlariga moslashtirish mumkinligini ta'kidlaydilar; masalan, moliyaviy sohada qo'llanilayotgan dipfeyk texnologiyalariga nisbatan firibgarlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar tatbiq etilishi mumkinligi ilgari suriladi. Biroq boshqa mualliflar mavjud huquqiy normalarning bunday jinoyatlarga qarshi kurashishda yetarli darajada samarali emasligiga e'tibor qaratadilar. Xususan, A.Suxodolov va boshqa tadqiqotchilar qayd etishicha, amaldagi qonunchilik hujjatlari SI yordamida sodir etiladigan jinoyatlarning ayrim muhim jihatlarini, jumladan, jinoiy qasd masalasini yetarlicha inobatga olmaydi, chunki odatda qasddan sodir etiladigan jinoyatlar inson tomonidan amalga oshiriladi. Sun'iy intellekt algoritmlarining noaniqligi va yopiq tabiati esa jinoyat uchun javobgarlik masalasini aniq belgilash imkonini bermaydi [3].

Sudlovga taalluqlilik va javobgarlik doirasining aniq belgilanmaganligi, mavjud huquqiy rejimning yetarli emasligi, ayb shaklini aniqlashdagi murakkabliklar hamda yurisdiksiya bilan bog'liq muammolar bularning barchasi amaldagi jinoiy qonunchilikning SI yordamida sodir etilayotgan jinoyatlar bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda yetarli emasligining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, SI texnologiyalari yoki mahsulotlari bilan bog'liq jinoyatlarga nisbatan jinoiy qonunchilikni qo'llash jarayonida qasd elementlarini va qilmishni muayyan subyektga nisbat berish masalasini aniqlash talab etiladi. SI yordamida sodir etilgan jinoyat qasddan amalga oshirilganini hamda u aynan muayyan shaxs bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydigan darajada isbotlash zarur. Shu bilan birga, texnologiyalar ayrim hollarda zarar yetkazishni oldindan ko'zlamagan holda ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, jinoyat dasturchi, ishlab chiqaruvchi yoki SIDan foydalanuvchi tomonidan sodir etilganini isbotlash ham amaliyotda murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Bu holat jinoiy ta'qibni amalga oshirish hamda jinoyatchilikni samarali jilovlash jarayonlariga to'sqinlik qiladi. Shu bois, tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida yanada puxta va barqaror huquqiy asoslarni shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ijtimoiy-huquqiy mohiyat nuqtayi nazaridan, sun'iy intellektdan jinoiy maqsadda foydalanish ikki asosiy yo'nalishda xavf tug'diradi. Birinchidan, u jamiyatdagi ishonch munosabatlarini izdan chiqaradi. Axborotning haqiqiyliги, identifikatsiya tizimlarining ishonchligi, elektron hujjatlar va elektron raqamli imzo tizimlarining xavfsizligi sun'iy intellekt orqali manipulyatsiya qilinishi mumkin. Bu esa fuqarolik muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, jinoyat qonunchiligidan farqli ravishda fuqarolik qonunchiligi, avvalo, majburiyatlar hamda oldindan ko'ra bilish (prediktivlik) elementiga e'tibor qaratadi, shu bois uni sun'iy intellekt (SI)dan foydalanilgan holda sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan qo'llash nisbatan osonroq hisoblanadi. Bunday holatda asosiy masala jinoyatchini ozodlikdan mahrum qilish yoki boshqa jinoiy jazolarni qo'llash emas, balki jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashdan iborat bo'ladi. SI yordamida sodir etiladigan qilmishlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, jabrlanuvchilar qonunchilikda nazarda tutilgan kompensatsiyani olishlari shart, biroq bu kelgusida bunday jinoyatlarning oldini olishni to'liq kafolatlamaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tomonidan yetkaziladigan zarar har doim ham og'ir jinoyatlar darajasiga yetavermaydi. Umuman olganda, amaldagi an'anaviy qonunchilik hujjatlari, masalan, mahsulot sifati uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlar yoki beparvolik (ehtiyotsizlik) bilan bog'liq normalar SI bilan bog'liq qilmishlarga nisbatan qo'llanishi mumkin, chunki ular jamoat xavfsizligi, javobgarlik hamda texnologik rivojlanish

oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashga qaratilgan. Biroq mazkur imkoniyat qanchalik darajada yetarli ekani alohida tahlilni talab etadi.

Mahsulotda nuqson aniqlangan taqdirda isteʼmolchining huquqlari mahsulot sifati uchun javobgarlik toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlari bilan himoya qilinadi, zero ishlab chiqaruvchi, distribyutor va sotuvchilar mazkur nuqsonlar uchun javobgar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, agar sunʼiy intellekt tizimi nosoz ishlasa yoki zarar yetkazsa, ishlab chiquvchi yoki ishlab chiqaruvchi bunday kamchiliklar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin [4]. Boshqa tomondan, beparvolik toʻgʻrisidagi qonunchilik normalari shaxslarning zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida zarur darajada ehtiyotkorlik bilan harakat qilish majburiyatini nazarda tutadi. Mazkur normalar SI tizimlaridan jinoiy faoliyatda noqonuniy foydalanishning oldini olish choralarini koʻrmagan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin [5].

Sunʼiy intellekt tizimlari qaror qabul qilishdagi nisbiy mustaqillik, oʻz-oʻzini oʻqitish qobiliyati hamda ayrim hollarda insonning bevosita ishtirokisiz harakat qilishi kabi murakkab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bunday qilmishlarga qarshi kurashish uchun maxsus huquqiy asoslarni ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu sohada javobgarlik va yurisdiksiya masalalarini aniq belgilovchi qatʼiy va ravshan mezonlarni shakllantirish zarur.

Ideal holatda, SI sohasida barcha manfaatdor tomonlar uchun maqbul va barqaror muhitni taʼminlash maqsadida sunʼiy intellektni tartibga solish tizimi PEEC doktrinasida qurilishi lozim, yaʼni u “jamoat manfaatlari”ga rioya qilish, “ekologik barqarorlik tamoyillari”, “iqtisodiy rivojlanish” hamda “jinoiy huquq normalari” uygʻunligini taʼminlash gʻoyalari tayanishi kerak [6].

Ikkinchidan, SI yordamida sodir etiladigan jinoyatlar transmilliy xususiyat kasb etadi. Jinoyatchi bir davlat hududida boʻlgan holda, boshqa davlat fuqarolariga nisbatan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi mumkin. Bu esa jinoyat yurisdiksiyasi, ekstraditsiya va xalqaro hamkorlik masalalarini murakkablashtiradi.

Jinoyat tarkibi elementlari nuqtayi nazaridan, SI yordamida sodir etilgan jinoyatlarda obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomonning klassik modeli saqlanib qoladi. Biroq, obyektiv tomonda “usul” elementi texnologik murakkablik kasb etadi. Masalan, kompyuter tizimiga qonunga xilof ravishda kirish SI algoritmlari yordamida avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda jinoyatni sodir etish jarayoni insonning bevosita harakatidan koʻra, dasturiy taʼminot orqali amalga oshiriladi.

Subyektiv tomon masalasida esa ayb shakli (qasd yoki ehtiyotsizlik)ni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Agar shaxs SI tizimini jinoyat sodir etish maqsadida ongli ravishda sozlagan yoki undan foydalanish mexanizmini ishlab chiqqan boʻlsa, bu toʻgʻridan-toʻgʻri qasd bilan sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Biroq ayrim hollarda SI tizimining avtonom xatti-harakatlari natijasida zarar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa jinoyat huquqida “nazoratning yetishmasligi”, “beparvolik” yoki “kasbiy ehtiyotsizlik” kabi kategoriyalarni qayta koʻrib chiqishni talab etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi va “Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida”gi qonun hujjatlarida axborot xavfsizligi, maʼlumotlarni himoya qilish va axborot resurslaridan foydalanish tartibi belgilangan. Sunʼiy intellektdan jinoiy maqsadda foydalanish aynan ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarga tajovuz sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Shu bois jinoyat-huquqiy tavsifni aniqlashda axborot xavfsizligi bilan bogʻliq qonunchilik normalari ham hisobga olinishi zarur.

Ilmiy nuqtayi nazardan, sunʼiy intellektdan jinoiy maqsadda foydalanish fenomeni jinoyat huquqida texnologik neytrallik prinsipini saqlab qolish masalasini ham koʻndalang qoʻyadi. Yaʼni jinoyat tarkibi texnologiyaga bogʻlanib qolmasligi, balki ijtimoiy xavfli qilmish mohiyatidan kelib chiqib baholanishi lozim. Shu bilan birga, SI yordamida sodir etiladigan qilmishlarning oʻziga xos xususiyatlari jinoyat tarkibining kvalifikatsiya belgilarini aniqlashtirishni talab etadi.

Sunʼiy intellektdan jinoiy maqsadda foydalanishning jinoyat-huquqiy tavsifi jinoyat sodir etish usulining texnologik murakkablashuvi, dalillarning raqamli tabiat kasb etishi, sabab-oqibat bogʻlanishini aniqlashdagi qiyinchiliklar va transmilliylik xususiyati bilan tavsiflanadi. Uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati esa jamiyatdagi ishonch institutlariga, axborot xavfsizligiga va fuqarolik

muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Shu bois jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyoti sun'iy intellekt fenomenini chuqur tahlil qilib, mavjud jinoyat tarkiblarini zamonaviy texnologik sharoitlarga mos ravishda talqin etishi zarur.

SI texnologiyalarining keng joriy etilishi jinoyat huquqini normativ va doktrinal jihatdan modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Amaldagi jinoyat qonunchiligi ko'plab hollarda texnologik neytral xarakterga ega bo'lsa-da, SI ishtirokidagi qilmishlarning murakkab mexanizmi javobgarlikni aniqlashda aniqlik va prognoz qilinuvchanlikni kuchaytirishni talab qiladi. Shu bois jinoyat javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari jinoyat huquqining asosiy prinsiplari ayb uchun javobgarlik, odillik va qonuniylik tamoyillarini saqlagan holda ishlab chiqilishi lozim.

Boshqacha aytganda, SI texnologiyalarining rivojlanishi jinoyat huquqining an'anaviy konstruktsiyalarini saqlagan holda ularni zamonaviylashtirishni talab etadi. Masala shundaki, SI ishtirokida sodir etiladigan qilmishlar jinoyat tarkibining elementlarini formal jihatdan o'zgartirmasada, ularning amalga oshish mexanizmini murakkablashtiradi. Shu bois jinoyat javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari normativ aniqlik, ayb prinsipi va preventiv mexanizmlarni uyg'unlashtirish orqali ishlab chiqilishi lozim.

Zamonaviy huquqshunoslikda SI bilan bog'liq javobgarlikni belgilashda "risk-based approach" konsepsiyasi keng muhokama qilinmoqda. Luchiano Floridi va Josh Kouls sun'iy intellektni tartibga solishda etik va huquqiy risklarni oldindan baholash zarurligini ta'kidlaydi [7]. Ularning fikricha, yuqori xavfli tizimlar uchun alohida nazorat va javobgarlik mexanizmi ishlab chiqilishi kerak.

Bu yondashuv jinoyat huquqida ham qo'llanishi mumkin: agar SI tizimi yuqori xavfli sohada (transport, sog'liqni saqlash, moliya) qo'llanilayotgan bo'lsa, unga nisbatan kuchaytirilgan nazorat majburiyati joriy etilishi zarur.

Boshqa bir olim esa algoritmik tizimlar ustidan inson nazorati masalasini huquqiy javobgarlikning markaziy elementi sifatida ko'rsatadi [8]. Uning ta'kidlashicha, javobgarlikni belgilashda samarali nazorat (effective control) mezoni qo'llanishi lozim: kim tizim ustidan real va amaliy nazoratga ega bo'lgan bo'lsa, javobgarlik o'sha shaxsga yuklanadi.

Bu nazariya jinoyat huquqiga tatbiq etilganda, quyidagi xulosa kelib chiqadi: agar SI tizimi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxs zararli oqibatni oldini olish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, uning harakatsizligi yoki noto'g'ri harakati ehtiyotsizlik sifatida baholanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar SI texnologiyalari huquqni qo'llash amaliyotini transformatsiya qilayotganini ko'rsatmoqda [9]. Bu o'zgarishlar algoritmik boshqaruv sharoitida jinoyat huquqi faqat jazolovchi emas, balki preventiv xarakter kasb etishi bilan izohlanadi. Shu bois javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari doirasida quyidagilar dolzarb:

- algoritmik audit tizimini joriy etish;
- xavfli SI tizimlari uchun majburiy sertifikatlash;
- inson nazorati mexanizmini normativ mustahkamlash.

Ba'zi anglo-amerika olimlari yuqori xavfli texnologiyalar bilan bog'liq sohalarda qat'iy javobgarlik (strict liability) modelini qo'llash mumkinligini ilgari suradi. Jumladan, ular og'ir xavf manbai bilan bog'liq faoliyatda aybni isbotlashni soddalashtirish mumkinligini ta'kidlaydi [10]. Biroq ular ham jinoyat huquqida to'liq aybsiz javobgarlikni kengaytirish xavfli ekanini qayd etadi.

SI bilan bog'liq jinoyatlarda qat'iy javobgarlikni to'liq joriy etish jinoyat huquqining ayb prinsipi bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Shu bois ushbu model faqat ayrim maxsus sohalarda qo'llanishi mumkin.

Kai Ambos transmilliy jinoyatlar sharoitida milliy jinoyat huquqi xalqaro mexanizmlar bilan uyg'unlashishi zarurligini ta'kidlaydi [11]. SI orqali sodir etiladigan kiberjinoyatlar ko'pincha bir nechta davlat hududini qamrab oladi. Shu bois javobgarlikni takomillashtirish istiqbollari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ekstraterritorial yurisdiksiya normalarini aniqlashtirish;
- xalqaro tergov hamkorligini kuchaytirish;
- raqamli dalillarni o'zaro tan olish mexanizmini ishlab chiqish.

Karen Yong algoritmik boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi [12]. Jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan, agar SI tizimi “qora quti” (black box) xarakterga ega bo‘lsa, javobgarlikni aniqlash qiyinlashadi. Shu bois qonunchilikda algoritmik shaffoflik talabini belgilash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar asosida quyidagi normativ takliflar ilgari surilishi mumkin:

Yuqori xavfli SI tizimlarini joriy etishda majburiy risk baholash mexanizmini joriy etish;

SI ishlab chiquvchi va operatorlar uchun maxsus professional javobgarlik standartini belgilash;

Algoritmik audit va texnik ekspertiza institutini jinoyat-protsessual darajada mustahkamlash;

Nazorat majburiyatini buzish uchun alohida kvalifikatsiya belgisini nazarda tutish.

Bu takliflar jinoyat huquqining asosiy tamoyillarini buzmaydi, aksincha ularni zamonaviy texnologik sharoitga moslashtiradi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish jinoyat huquqining konseptual asoslarini qayta qurishni emas, balki ularni chuqurlashtirishni talab qiladi. Tavakkalchilikka asoslangan yondashuv, samarali nazorat mezoni, algoritmik shaffoflik va preventiv mexanizmlar jinoyat huquqini zamonaviylashtirishning asosiy istiqbollari hisoblanadi. Javobgarlik inson omiliga bog‘lanishi saqlanib qolgan holda, yuqori xavfli SI tizimlari uchun kuchaytirilgan nazorat modeli joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Center for AI Crime. (2023). About AI Crimes. <https://clck.ru/3Gpr34>
2. Markoff, J. (2016, October 23). As Artificial Intelligence Evolves, So Does Its Criminal Potential. *The New York Times*. <https://clck.ru/3Gpr5Z>
3. Sukhodolov, A., Bychkov, A., & Bychkova, A. (2020). Criminal Policy for Crimes Committed Using Artificial Intelligence Technologies: State, Problems, Prospects. *Journal of Siberian Federal University*, 13(1), 116–122. <https://doi.org/10.17516/1997-1370-0542>
4. Scherer, M. U. (2015). Regulating Artificial Intelligence Systems: Risks, Challenges, Competencies, and Strategies. *Harvard Journal of Law & Technology*, 29(2), 353. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2609777>
5. Zhao, S. (2024). *Principle of Criminal Imputation for Negligence Crime Involving Artificial Intelligence*. Springer Nature. <https://10.1007/978-981-97-0722-5>
6. Bhatt, N., & Bhatt, J. (2023). Towards a Novel Eclectic Framework for Administering Artificial Intelligence Technologies: A Proposed ‘PEEC’ Doctrine. *EPR International Journal of Research and Development (IJRD)*, 8(9), 27–36. <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.11434.18888>
7. Luciano Floridi & Josh Cowls, “A Unified Framework of Five Principles for AI in Society,” *Harvard Data Science Review* 1, no. 1 (2019).
8. John Danaher, “Robots, Law and the Retribution Gap,” *Ethics and Information Technology* 18 (2016): 299–309.
9. Mireille Hildebrandt, *Smart Technologies and the End(s) of Law: Novel Entanglements of Law and Technology* (Cheltenham: Edward Elgar, 2015), 134–152.
10. Andrew Ashworth & Jeremy Horder, *Principles of Criminal Law*, 7th ed. (Oxford: Oxford University Press, 2013), 152–165.
11. Kai Ambos, *Treatise on International Criminal Law. Volume I: Foundations and General Part* (Oxford: Oxford University Press, 2013), 88–104.
12. Karen Yeung, “Algorithmic Regulation: A Critical Interrogation,” *Regulation & Governance* 12, no. 4 (2018): 505–523.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.